"TASDIQLAYMAN"
Toshkent shahar, Uchtepa tumani
28-son BMS maktabi direktori
_____ X.T.Tuxtavxunov
«___» _____ 2022 yil

"TASDIQLAYMAN"
O'zbekiston davlat konservatoriyasi
rektori
_____ K.T.Urinbayev
_____ 2022 yil

O'zaro hamkorlik aloqalari bo'yicha
SHARTNOMA №_____

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktyabrdagi PF–5847-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar natijadorligi hamda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik jarayonlari to'g'risida"gi o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi 34-sonli bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida *O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi* (keyingi o'rinlarda kafedra) nomidan (bir tomondan) Konservatoriya Ustavi asosida rektor *K.T.Urinbayev*, Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 28-son BMS maktabi (keyingi o'rinlarda ta'lim muassasa), ikkinchi tomondan ta'lim muassasa Ustavi asosida direktor X.T.Tuxtavxunov o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalari bo'yicha shartnoma tuzildi.

I. Umumiy qoidalar:

Oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini mamlakatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, san'at va ilm-fanning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda hamkorlik amalga oshiriladi:

1.1. Kafedra va ta'lim muassasaning o'zaro samarali hamkorligini yo'lga qo'yish;

1.2. Ushbu shartnoma ta'lim muassasalarining mehnat jamoalari orasida muhokama qilinib, har ikkala ta'lim muassasi rahbarlari tomonidan imzo chekilib, muhr bosilgan kundan kuchga kiradi va hamkorlik faoliyatidagi yuridik hujjat hisoblanadi. Shartnomaning amal qilish muddati imzolangan kundan boshlab 5 – yil;

1.3. Hamkorlik shartnomasi qabul qilingan kundan boshlab yangisini qabul qilgunga qadar amal qiladi. Shartnomaning ayrim bandlariga tomonlarning roziligi asosida o'zgartirishlar kiritish mumkin;

1.4. Hamkorlik shartnomasining faoliyatini bir tomondan to'xtatib qo'yish mumkin emas.

1.5. Shartnoma bandlarining bajarilishi ahvoli bir o'quv yilida kamida ikki marotaba, Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 28-son BMS maktabi pedagogik Kengashida va O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Cholg'u ijrochiligi" fakulteti Kengashida hamda kafedra yig'ilishlarida ko'rib boriladi;

1.6. Shartnoma bandlarini to'liq va samarali bajarilishini ta'minlash maqsadida tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida har o'quv yili uchun reja qabul qilinadi.

II. Hamkorlik shartnomasi bo'yicha tomonlarning majburiyatlari:

2.1. O'quv-uslubiy ishlar bo'yicha:

2.1.1. *O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi professor–o'qituvchilari majburiyatlari:*

2.1.1.1. Ta'lim turlari orasida uzluksiz va o'quv fanlari o'rtasidagi uzviylikni hisobga olgan holda davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va fan dasturlarini ta'lim muassasasi bilan hamkorlikda takomillashtirish maqsadida o'quv fani bo'yicha tahlil qilish, xulosa va takliflar tayyorlab, institut rahbariyatiga taqdim etish;

2.1.1.2. BMS maktabi o'qituvchi va xodimlari bilan o'quv fani yo'nalishida faoliyatni muvofiqlashtirish;

2.1.1.3. Ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda hamkorlik qilish;

2.1.1.4. Maktab mehnat jamoasi orasida boy madaniy merosimizni, tariximizni, milliy qadriyatlarimizni hamda milliy istiqlol g'oyasini keng targ'ib qilish maqsadida imkoniyat darajasida kafedra faoliyatini tashkil etish;

2.1.1.5. Maktab o'quvchilari uchun ta'lim muassasasi mutaxassislari bilan hamkorlikda o'quv adabiyotlar (qo'llanmalar, darsliklar) yaratish;

2.1.1.6. O'quv, metodik ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi seminarlar o'tkazishni tashkil etish;

2.1.1.7. Maktabda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarning malakalarini oshirishda hamkorlik qilish.

2.1.2. Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 28-son BMS maktabi majburiyatlari:

2.1.2.1. Davlat ta'lim standartlari asosida yaratilgan o'quv dasturlari va rejalarini takomillashtirishga qaratilgan takliflarni berish;

2.1.2.2 Hamkorlikda faoliyat ko'rsatayotgan "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi professor-o'qituvchilariga zarur shart-sharoitlar yaratish;

2.1.2.3 Ta'lim jarayonida institutning o'quvchilariga Maktab tasarrufidagi auditoriyalarda mashg'ulotlar o'tkazish, kutubxona, o'quv zallaridan foydalanishlariga sharoitlar yaratib berish;

2.1.2.4 Maktabdagi iqtidorli o'quvchilar bilan institutning kafedra professor-o'qituvchilariga qo'shimcha mashg'ulotlar olib borishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish;

2.1.2.5 Darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish uchun mualliflarni zaruriy ta'lim standartlari va fan dasturlari bilan ta'minlash;

2.1.2.6 Institut kafedra professor-o'qituvchilarini davlat malaka hay'ati tarkibiga kiritish.

2.2. Ilmiy tadqiqot ishlari bo'yicha.

2.2.1. *"Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi professor-o'qituvchilari majburiyatlari:*

2.2.1.1. Kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish sohasida va ish tajribasi bo'yicha axborotlar almashish;

2.2.1.2. Ilmiy tadqiqot ishlari bo'yicha Maktab o'qituvchilari bilan hamkorlik qilish, ularga ilmiy-metodik yordam berish;

2.2.1.3. O'zaro manfatli mavzular bo'yicha ma'ruzalar o'qish, birgalikda ilmiy-amaliy, ilmiy-metodik seminarlar o'tkazish;

2.2.1.4. Ilmiy tadqiqot ishlariga Maktab mutaxassislarini jalb etish, ularni magistratura, doktoranturada o'qishlariga yo'nalishlar berish hamda ilmiy rahbar va maslahatchilar tanlashda yordam berish;

2.2.1.5. Hamkorlikda bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

2.2.1.6. Maktabda ta'lim olayotgan iqtidorli talabalarni ilmiy to'garaklari faoliyatini yo'lga qo'yishda (o'quv fani bo'yicha) yordam berish.

2.2.2. *Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 28-son BMS maktabi ma'muriyati majburiyatlari:*

2.2.2.1. Samarali ilmiy-tadqikot ishlarini olib borish shart-sharoitlar yaratish.

2.2.2.2. Maktab o‘qituvchilarini ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish;

2.2.2.3. Ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik seminarlar o‘tkazish uchun zarur imkoniyatlarni yaratish;

2.2.2.4. Hamkorlikdagi ilmiy to‘plamlar va ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy konferentsiyalar materiallarini nashr ettirish.

2.4. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha.

2.4.1. *O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi majburiyatlari:*

2.4.1.1. Maktab jamoasi orasida umumbashariy va milliy qadriyatlarni e’zozlashga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazishda hamkorlik qilish;

2.4.1.2. Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini, istiqlol yillarida mamlakatimiz ichki hamda tashqi siyosatining mohiyatini jamoada keng targ‘ib qilish;

2.4.1.3. Sog‘lom turmush tarzini shakllanishiga xizmat qiluvchi, insoniy fazilatlarni qadrlashga qaratilgan tadbirlar o‘tkazish;

2.4.1.4. Maktab o‘quv binolari va o‘quvchilar turarjoylarini milliy qadriyatlar asosida jihozlanishini ta’minlashda uslubiy maslahatlar berish;

2.4.1.5. Yil mazmunini o‘zida mujassamlashtirgan hukumat dasturlarini akadem guruhlarda, o‘quvchilar turarjoylarida targ‘ib qilishda ishtirok etish;

2.4.1.6. Maktabdagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar rejasini ishlab chiqishda qatnashish.

2.4.2. *Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 28-son BMS maktabi ma’muriyatining majburiyatlari:*

2.4.2.1. Maktabda o‘tkazilayotgan barcha ma’naviy-ma’rifiy ishlarda “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi jamoasi bilan hamkorlik qilish;

2.4.2.2. Umumbashariy va milliy qadriyatlarni e’zozlashga qaratilgan tadbirlar rejalarini hamkorlikda ishlab chiqish va amalga oshirish;

2.4.2.3. Milliy qadriyatlarni e’zozlovchi, o‘zlikni anglashga xizmat qiluvchi tanlovlar o‘tkazish;

2.4.2.4. Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarida faol ishtirok etganlarni moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish.

Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 28- son BMS maktabi direktori o‘rinbosari	**O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi mudiri**
_____ **M.R. Xodjayeva**	_____ **B. Mirpayazov**
“ ___ ” _____ 2022 yil	**“ ___ ” _____ 2022 yil**